

ANTON PAVLOVICH CHEXOVNING "SOYLIKDA " HIKOYASI

Yodgorova Shahnoza Faxriddinovna

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 202-guruh talabasi

Bu ijodkor 19 - asrning 80- yillarida yashab o'tgan. Hammamizga ma'lumki, bu davrlar mustabid hokimyatining zulmi ostida o'tgan. Hatto bu zulmning daxshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan Chexov, bularni o'zining asarlariga singdirgan. Bu asarlarda hayot faqat zulmdan iborat emasligini alohida ta'kidlash maqsadida hayotning ikkala tomonini ham yoritib o'tganligini , o'zining asarlarida aks ettirgan.

Uning Sara hikoyalari bu fikrimizning tasdig'i hisoblanadi. " Semiz va oriqliq", "Niqob", "Chinovkinning o'limi", " Buqalamun", "Unten Prishibeyev", "Yovuz niyatli kishi", ayniqsa, menga yoqqan " Soylikda" hikoyasi Nabi Alimuxamedov tomonidan tarjima qilingan bo'lib, bu hikoyada umrining teng yarmini to'kin- sochinlikda o'tkazgan, ammo bu to'kin-sochinlik boshqalarning haqqi, o'g'ir mehnati evaziga kelganligi, hech qachon bironing haqqi boshqa insonga buyurmasligini aynan shu hikoyadagi Sibukin ismli qahramonning hayoti orqali ko'rishimiz mumkin. Uning gunohlari, nafaqat, o'zini balki yaqinda uylangan o'g'li va hali tilga kirib ulgurmagan norasida nevarasining o'limiga ham sababchi bo'ldi.

O'sha norasida go'dakning o'limiga sababchi, ovsuni shavqatsizlarcha ustidan qaynoq suvni quyib yuborganda, uni himoya qilaolmagan onasi Lipa ham aybdordir. Ijodkor bu hikoyada bitta oilaning misoli orqali butun bir jamiyat, xalq hayoti, undagi shavqatsizliklar bilan bir qatorda xalqning orzu - umidlarini yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Ijodkorning har bir epizodi, har bir jumlasining o'z o'rnini

va vazifasi bor. Bir so'z bilan aytganda Chexov hikoyachilikda o'ziga xos maktab yaratdi. Uning ijodi butun dunyodagi ko'plab hikoyanavis yozuvchilar uchun Ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek adabiyotimizning yirik nomoyondalaridan bo'lmish Abdulla Qahhor Chexov ijodidan ilhomlanib go'zal hikoyalar yozganlar. Bundan tashqari boshqa ijodkorlarning bir qator hikoyalarida Chexovga xos uslub yaqqol sezilib turadi. Anton Pavlovich Chexov jahon adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri hisoblanadi.